



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№6**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 55 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
<b>Malikov Numonjon Kamalovich</b>	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri.....	26
<b>Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova</b>	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan.....	30
<b>Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li</b>	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida.....	39
<b>Musinov Dilshod Sultanovich</b>	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies.....	44
<b>N.A. Rakhmonova</b>	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
<b>Умаров Б. С.</b>	



## O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA XITOIY VA ROSSIYA INVESTITSIYALARINING QIYOSIY TAHLILI

### Malikov Numonjon Kamalovich

Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi,

JIDU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [malikov.numonjon@gmail.com](mailto:malikov.numonjon@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0172-0195>.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xitoy va Rossiya tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning miqyosi, tarkibi va strategik yo'nalishlari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, mazkur investitsiyalarning yashil iqtisodiyot, infratuzilma modernizatsiyasi, sanoat diversifikatsiyasi va energetika sohalaridagi roli atroflicha yoritilgan. Shuningdek, investitsiyalar bilan bog'liq iqtisodiy xavfsizlik, qarzdorlik riski, siyosiy bosim ehtimoli va strategik tarmoqlar ustidan nazorat masalalari ham ilmiy yondashuv asosida baholangan. Maqolada diversifikatsiyalashgan sarmoya siyosati, ekologik barqarorlik va xorijiy kapital oqimini muvozanatli boshqarish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** xorijiy investitsiyalar, yashil iqtisodiyot, Xitoy, Rossiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются масштабы, структура и стратегические направления иностранных инвестиций, поступающих в экономику Узбекистана со стороны Китая и России. Особое внимание уделяется влиянию этих инвестиций на развитие зелёной экономики, модернизацию инфраструктуры, диверсификацию промышленности и энергетический сектор. Также проанализированы возможные риски, связанные с экономической безопасностью, долговыми обязательствами, политическим давлением и снижением контроля над стратегическими отраслями. В статье выдвигаются предложения по диверсификации источников инвестиций, обеспечению экологической устойчивости и сбалансированному управлению потоками иностранного капитала.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, зеленая экономика, КНР, Россия.

**Abstract:** This article analyzes the scope, composition, and strategic directions of foreign investments made by China and Russia in Uzbekistan's economy. Special attention is given to the impact of these investments on the development of a green economy, infrastructure modernization, industrial diversification, and the energy sector. The study also evaluates potential risks related to economic security, debt dependency, political leverage, and loss of control over strategic industries. The article proposes recommendations aimed at diversifying investment sources, enhancing environmental sustainability, and ensuring a balanced management of foreign capital flows.

**Key words:** foreign investment, green economy, China, Russia.

### KIRISH

So'nggi yillarda Xitoy va Rossiya O'zbekistonning eng yirik strategik sarmoyadorlariga aylandi. Ularning kapital qo'yilmalari energetika, sanoat va infratuzilma sohalarining modernizatsiyasiga sezilarli turtki berdi. Natijada ish o'rinlari ko'paydi, eksport salohiyati esa, ayniqsa sanoat va energetika klasterlarida, oshdi. Biroq bunday yuqori konsentratsiyadagi sarmoyalar [ma'lumot uchun: Xitoy va Rossiyaning O'zbekistonga kiritilgan xorijiy investitsiyalardagi umumiy ulushi 41 foizni tashkil etgan] mamlakat iqtisodiyotini ayrim geosiyosiy hamda



iqtisodiy xatarlar ostida qoldirishi mumkin. Shu bois, ularning iqtisodiy ta'sirini chuqur tahlil qilish va xatarlarni diversifikatsiya orqali kamaytirish hozirgi kunda dolzarb masalaga aylangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlariga, jumladan O'zbekistonga bo'lgan investitsiya siyosatini o'rganishda Zhao Hongning *China's Investment in Central Asia* nomli asari muhim manba sifatida xizmat qilgan. Ushbu tadqiqotda muallif Xitoy investitsiyalarining asosan sanoat, infratuzilma hamda transport sohaslariga yo'naltirilganligini, shuningdek Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy integratsiyasi va rivojiga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qiladi.

Markaziy Osiyoda Rossiyaning iqtisodiy ta'siri va investitsiyaviy siyosatini o'rganishda esa Alexander Libman va Evgeny Vinokurovning *Eurasian Integration: Challenges of Transcontinental Regionalism* (2012) asari muhim manba hisoblanadi. Shu bilan birga, David Dollarning *China's Investment in the Belt and Road Initiative* ilmiy tadqiqoti Xitoyning "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi investitsiya siyosatini keng qamrovda tahlil qiladi.

Rossiya investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni esa Karimov B.ning *Rossiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri* nomli (2021) tadqiqotida batafsil yoritilgan. Unda Rossiya sarmoyalarining energetika, bank va sanoat sohaslariga qaratilganligi, iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi hamda Rossiyaga qaramlik ehtimoli atroflicha tahlil qilingan.

Biroq yuqorida tilga olingan mualliflar tomonidan Xitoy va Rossiya investitsiyalarining O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoniga ko'rsatayotgan ta'siri hali to'liq yoritilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ishda ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil, grafik tahlil, empirik tadqiqotlarni umumlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish usullari asosida olib borildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Xitoy va Rossiyaning global investitsion faolligi mintaqaviy raqobat va hamkorlik elementlarini o'z ichiga oladi. Markaziy Osiyo bu jarayonning markazida turibdi. Xitoy "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi orqali infratuzilma va sanoat loyihalarini kengaytirar ekan, Rossiya o'zining tarixiy, madaniy va iqtisodiy ta'sir doirasini saqlab qolishga harakat qilmoqda.

Xitoy va Rossiyaning investitsiyalari qabul qiluvchi mamlakatlarga turli iqtisodiy natijalar keltirmoqda. Xitoy kapitalining ko'pligi infratuzilma rivojiga turtki bersa-da, ba'zi holatlarda bu davlatlarni qarz yukining ortishi xavfi bilan yuzlashtiradi. "Qarz qopqoni" konsepsiyasi, xususan, Shri-Lanka va Pokiston misollarida xalqaro maydonda tanqidiy bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Xitoy sarmoyalari sanoat diversifikatsiyasi va infratuzilma modernizatsiyasiga hissa qo'shmoqda.

Rossiyaning investitsion faolligi esa asosan xomashyo va energetika sohasi bilan cheklanadi. Neft-gaz sektoriga yo'naltirilgan mazkur sarmoyalar iqtisodiy barqarorlik keltirsa-da, qabul qiluvchi davlatlarning sanoat diversifikatsiyasini cheklashi mumkin. Tanqidiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, har ikkala mamlakat investitsiyalari ham ma'lum darajada iqtisodiy mustaqillikka ta'sir ko'rsatadi va qabul qiluvchi davlatlardan puxta siyosiy-iqtisodiy strategiyalarni talab qiladi.

Xitoyning Markaziy Osiyoga kiritgan investitsiyalari hajmi 2024-yilning 1-yarmida 27,7 mlrd AQSh dollariga yetdi. Asosiy yo'nalishlar energetika, qazib olish hamda ishlab chiqarish sektorlarini qamrab oladi. Elektroenergetika sohasidagi investitsiyalar 4,1 mlrd AQSh dollariga oshdi; e'tiborli jihati shundaki, ushbu sarmoyalarning 85 foizi O'zbekistonga yo'naltirilgan.

Rossiya Federatsiyasining tashqi iqtisodiy siyosatida Yevrosiyo mintaqasi alohida o'ringa ega. Mintaqadagi faol investitsiya ishtiroki Rossiyaning geoiqtisodiy strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu tendensiya nafaqat sanoat va energetika sohaslarida, balki yuqori texnologiyalar, transport-logistika hamda innovatsion ishlab chiqarish yo'nalishlarida oz miqdorda bo'lsa-da ko'zga tashlanmoqda.

Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan savdo aylanmasi 2024-yilda 48 mlrd AQSh dollariga yetgan, O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi esa 11,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, Rossiyani Xitoydan keyingi yirik savdo hamkoriga aylantirgan. O'zbekistonga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 13,2 foizi aynan Rossiyaga to'g'ri keladi. Rossiya mintaqada nafaqat eng yirik investor, balki yetakchi kapital provayder sifatida e'tirof etiladi.

2024-yil iyul holatiga ko'ra, Yevrosiyo mintaqasidagi umumiy o'zaro to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) ulushida Rossiyaning hissasi 83 foizni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich 2016-yildagi 27,5 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 38,3 mlrd AQSh dollariga yetganini anglatadi, ya'ni 39 foizlik o'sish qayd etilgan.

Markaziy Osiyoda Rossiyaning asosiy investitsiyalari qazib olish sanoatiga yo'naltirilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi TTXI hajmi 16 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi va umumiy investitsiyalar tarkibida 42,2 foizlik ulushga ega. Shundan 12,3 mlrd AQSh dollari aynan neft va gaz qazib olish sohasiga to'g'ri keladi.


Ishlab chiqarish sohasidagi investitsiyalar ham ko'p jihatdan neft-gaz sektori bilan bog'liq bo'lib, 6,1 mlrd AQSh dollarlik TTXI hajmining 4 mlrd AQSh dollari kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan.

Geografik taqsimotga ko'ra, Rossiya investitsiyalarining asosiy qismi Qozog'iston va O'zbekiston davlatlariga to'g'ri keladi. Qozog'istonda 74 ta faol Rossiya loyihasi mavjud bo'lib, ular orqali mamlakatga 10,1 mlrd AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilgan — bu mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. O'zbekiston esa Rossiyaning ikkinchi yirik investitsiya yo'nalishiga aylangan. 2016–2024-yillar oralig'ida Rossiyaning O'zbekistonga kiritgan TTXI hajmi 54 foizga o'sib, 9,8 mlrd AQSh dollariga yetgan. Ayni paytda 24 ta Rossiya loyihasi faoliyat yuritmoqda, ulardan uchtasi so'nggi 1,5 yil ichida ishga tushirilgan.

Demak, Xitoy va Rossiya investitsiya strategiyalarida sezilarli farqlar mavjud. Xitoy o'z sarmoyalarini, asosan, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida sanoat, transport va ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirib, yangi infratuzilma loyihalarini foizli kreditlar hamda mahalliy pudratchilar orqali moliyalashtirishga intilmoqda. Rossiya esa an'anaviy energiya yo'llari — gaz va neft quvurlari orqali iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, shuningdek siyosiy-integratsion birliklar (masalan, MDH va Yevrosiyo Ittifoqi) doirasida o'z ta'sirini saqlab qolishga urg'u bermoqda.

Bu yondashuvlar O'zbekiston hamda Markaziy Osiyo mamlakatlariga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, so'nggi yillarda O'zbekiston arzonroq Rossiya gazini import qilish bo'yicha shartnomalar tuzgan (2,8–3,8 mlrd m<sup>3</sup> gaz), bir vaqtning o'zida esa Xitoy bilan elektr avtomobillar va yashil energetika kabi yangi tarmoqlarga qaratilgan sarmoya loyihalarini amalga oshirmoqda.

Xitoy investitsiyalari ko'proq diversifikatsiyalashgan va tez sur'atlar bilan o'sayotgan bo'lsa, Rossiyaniki nisbatan cheklangan hamda tabiiy resurslarga bog'langan. Natijada, Xitoy mintaqadagi yetakchi investor sifatida Rossiyani ortda qoldirmoqda. Umuman olganda, Xitoy iqtisodiy-sanoat loyihalariga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, Rossiya energetika va siyosiy-institutsional aloqalar orqali ta'sirini kuchaytirishga intilmoqda. Markaziy Osiyo esa ikki davlat siyosatini sinchkovlik bilan tahlil qilib, o'z iqtisodiy manfaatlarini yo'lida dinamik muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistondagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar


Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil oxiriga kelib Xitoy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar soni 3 711 taga yetib, bu borada yetakchilikni saqlab turibdi. Rossiya uchun ham ko'rsatkich sezilarli darajada yuqori — 3 033 ta. Shuningdek, Turkiya hamda Qozog'iston kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ham e'tiborga molik.

O'zbekistonga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy hajmi 2019-yilda 9,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, pandemiya tufayli bu ko'rsatkich 2020-yilda 7,95 mlrd AQSh dollarigacha qisqargan (2021-yilda — 11,1 mlrd; 2022-yilda — 10,29 mlrd). 2023-yilda mamlakat 16,64 mlrd AQSh dollariga teng xorijiy




investitsiyalar hamda kreditlarni jalb qilgan, 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 10 mlrd AQSh dollariga oshib, 26,7 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan.

Xitoy va Rossiya investitsiyalari dinamikasi quyidagi rasmda tasvirlangan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar dinamikasi, Xitoy, Rossiya, Turkiya

Xitoy investitsiyalari 2022-yildan boshlab keskin sur'atda oshdi, natijada Rossiya investitsiyalarini sezilarli darajada ortda qoldirdi. Siyosiy beqarorlikka qaramay, Rossiya sarmoyalari ham izchil o'sib bormoqda, biroq asosan ulkan neft-gaz loyihalariga yo'naltirilmoqda. Xitoy va Rossyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari sektorlar bo'yicha taqsimotini 3-rasmda ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Xitoy va Rossiya investitsiyalari sektorlar bo'yicha taqsimoti

O'zbekistonning geostrategik joylashuvi, boy tabiiy resurslari, mehnat bozori hamda iqtisodiy islohotlarga ochiqligi uni Xitoy va Rossiya uchun muhim investitsiyaviy hamkor sifatida tanitdi. Rossyaning investitsiyalari asosan yoqilg'i-energetika tarmog'iga yo'naltirilgan bo'lsa, Xitoy investitsiyalari sanoat sohasini qamrab olmoqda. Shuningdek, O'zbekistonning asosiy savdo hamkori Xitoy hisoblanib, 2024-yilda mamlakatlar o'rtasidagi savdo aylanmasi 12,5 mlrd AQSh dollari tashkil qildi. Rossiya mamlakatning ikkinchi yirik savdo hamkori bo'lib, o'zaro savdo 11,6 mlrd AQSh dollarga yetdi.

Xitoy investitsiyalari O'zbekistonda yangi ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, sanoat, to'qimachilik va avtomobilsozlik kabi yuqori bandlikni ta'minlaydigan tarmoqlarda Xitoy kapitali ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar minglab o'zbekistonliklarni doimiy ish bilan ta'minlamoqda.

Masalan, Jizzax viloyatida tashkil etilgan BYD avtomobil zavodida 1 500 ta ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning katta qismini o'zbekistonlik mutaxassislar egallagan. Bundan tashqari, 2024-yilda 200 nafar o'zbekistonlik mutaxassis Xitoydagi BYD zavodlarida malaka oshirgan bo'lib, bu inson kapitalini rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi.



To'qimachilik sanoatida esa bir nechta Xitoy kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Xususan, Jinsheng Group tomonidan 115 mln AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritilib, LT Textile International klasteri tashkil etilgan va 700 ta ish o'ri yaratilgan. Mulanhua Group 33,2 mln AQSh dollari investitsiya bilan Nanyang M&F va Bobur M&F korxonalarini ochgan, bu esa 450 ta ish o'ri yaratgan. Shuningdek, Chang Liang Textiles tomonidan 5,5 mln AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritilib, 120 ta ish o'ri, Hebei Evershine Textile tomonidan esa 3,7 mln AQSh dollari investitsiya asosida 100 ta ish o'ri yaratilgan.

Ushbu loyihalar umumiy hisobda kamida 1 370 ta doimiy ish o'ri yaratgan bo'lib, ayniqsa hududiy bandlikni yaxshilash va mahalliy aholini barqaror ish bilan ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Xitoy kompaniyalari tomonidan energetika va muqobil energiya sohalarida ham yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Energetika tarmog'ida 20 dan ortiq loyiha doirasida 9 mlrd AQSh dollardan ortiq investitsiyalar jalb qilingan bo'lib, bu loyihalarda asosan o'zbekistonlik mutaxassislar ishtirok etmoqda. Ushbu faktlar shuni ko'rsatadiki, Xitoy investitsiyalarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy (xususan, aholi bandligi) bo'yicha ham ijobiy ta'siri mavjud.

Rossiyaning O'zbekistonga kiritayotgan investitsiyalari ham salmoqli ko'rsatkichlarga ega. 2022-yilda umumiy chet el investitsiyalarining 20,3 foizi (taxminan 2,2 mlrd AQSh dollari) Rossiyaga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich Xitoy (16,4%) va Turkiya (10,1%) investitsiyalaridan yuqori bo'lib, Rossiyaning mintaqadagi muhim iqtisodiy rolini tasdiqlaydi.

Rossiya investitsiyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirlari yoki xatarli jihatlari bir nechta omillar bilan bog'liq bo'lib, ular strategik iqtisodiy mustaqillik, geosiyosiy xatarlar hamda resurslar ustidan nazorat kabi masalalarda namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston investitsion xavfsizligini ta'minlashda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, siyosiy bosim xavfi kuchayishi mumkin. Agar O'zbekiston bir yoki ikki yirik investor davlatga haddan tashqari iqtisodiy jihatdan bog'lanib qolsa, bu holat tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishda mustaqillik uchun bosim vositasi bo'lib xizmat qilishi ehtimoldan xoli emas.

Ikkinchidan, ya'ni yana bir muhim xavf — bu qarzdorlikning ortishi. Xitoy kreditlari, asosan, "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi doirasida O'zbekistonga energetika va infratuzilma sohalarida milliardlab AQSh dollari miqdorida yo'naltirilmoqda.

Uchinchi xavf — bu strategik sektorlar ustidan nazorat zaiflashuvi. Ayni paytda Xitoy va Rossiya kapitali O'zbekistonda eng muhim tarmoqlar — energetika, transport infratuzilmasi va sanoatga kirib kelmoqda. Masalan, Xitoyning "Lucheng Group" kompaniyasi bilan qo'shma neft-gaz loyihalari amalga oshirilmoqda, Rossiya esa "Gazprom" orqali tabiiy gaz qazib olish va eksportida o'z ulushini kengaytirgan. Agar strategik sohalar bo'yicha asosiy qarorlar xorijiy investorlar manfaatlariga moslashib boradigan bo'lsa, bu O'zbekistonning iqtisodiy suverenitetiga bevosita xavf tug'diradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda sarmoya manbalarini diversifikatsiya qilish eng muhim choradir. Investitsiyalarning faqat bir nechta davlatlardan kelishi, xususan, Xitoy va Rossiyadan, mamlakat iqtisodiyotini ushbu davlatlarga to'g'ridan-to'g'ri bog'lab qo'yadi. Bunday sharoitda Rossiya va Xitoydagi har qanday iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlar O'zbekiston siyosiy-iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Bu kabi xatarlardan saqlanish uchun O'zbekiston boshqa yetakchi va rivojlangan davlatlardan ham investitsiyalar jalb qilishga intilishi lozim.

Turkiya, Janubiy Koreya, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya kabi mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish orqali investitsiya manbalarini diversifikatsiya qilish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, balki xorijiy sarmoya oqimlarini kengaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday yondashuv potensial siyosiy yoki iqtisodiy inqirozlar sharoitida mamlakat sarmoya oqimlarining izchilligini saqlashga yordam beradi.

Xorijiy sarmoyalarning ijtimoiy va ekologik ta'sirini kuzatish ham muhimdir. Investitsiyalarni jalb qilishda ularning faqat iqtisodiy foydasigagina emas, balki ijtimoiy va ekologik oqibatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Sarmoyalar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda ekologik muammolarni kamaytirish maqsadida yo'naltirilishi lozim. Davlat xorijiy investorlar bilan tuziladigan kelishuvlarga ijtimoiy va ekologik mas'uliyat shartlarini kiritishi kerak. Bu, ayniqsa, tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish va ekologik xavf tug'diruvchi sohalarida dolzarb ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Investitsiya oqimlarini diversifikatsiya qilish va geografiyasini kengaytirish. Kelgusida investitsiyalar hajmini oshirish bilan birga, ularning manbalarini va yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish zarur. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda hududiy hokimliklar o'zaro



tizimli hamkorlikni kuchaytirib, xorijiy sarmoyalarni jalb etishda geografik va tarmoqlar kesimidagi muvozanatni ta'minlashi lozim.

Rossiya bilan hamkorlikni strategik va ekologik jihatdan qayta ko'rib chiqish. Rossiya investitsiyalari bilan ishlashda qayta tiklanadigan energiya, yashil iqtisodiyot kabi uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi tarmoqlarga ustuvorlik berilishi kerak. Bunday yondashuv iqtisodiy foyda bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta'minlab, mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasiga mos keladi.

Xalqaro tajribani o'rganish. O'zbekistonning joriy iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy bosqichini hisobga olgan holda, Vetnam, Malayziya va Qozog'iston kabi muvaffaqiyatli islohotlar orqali tezkor o'sishga erishgan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish zarur. Ularning investitsiya siyosati, sanoatni diversifikatsiyalash, infratuzilmani modernizatsiya qilish borasidagi yondashuvlari O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar va strategik yo'nalishlar shakllantirishda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Resurslardan samarali va barqaror foydalanish. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun O'zbekiston yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlari, kam resurs talab qiluvchi innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida investitsiyalarni kengaytirishi kerak. Qayta tiklanadigan energiya, texnologik ishlab chiqarish va turizm kabi sohalarga qaratilgan sarmoyalar mamlakatning raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy tizimiga aylanishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy statistika qo'mitasi Matbuot xizmati [https://t.me/statistika\\_rasmiy/5453](https://t.me/statistika_rasmiy/5453)
2. Ministry of Investments, Industry and Trade of Uzbekistan (MIIT). "Foreign Direct Investment Reports, 2010–2024." <https://mift.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi(2023). "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni( 11.09.2023 yildagi PF-158-son) Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6600413#-6605156>
4. Russia and China in Central Asia: Potential for direct competition. Foreign Policy Research Institute. Eurasia Program. M. Hess April 30, 2024
5. Russia and Uzbekistan: 2023-24 Trade and Investment Dynamics <https://scobricsinsight.com/russia-and-uzbekistan-2023-24-trade-and-investment-dynamics>
6. World Bank. Uzbekistan Economic Update, 2023. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/economic-update> & UNCTAD World Investment Report 2023. <https://unctad.org>
7. World Bank: Recommendations for a National FDI Strategy and Roadmap for Uzbekistan. <https://documents.vsemirnyjbank.org/ru/publication/documents-reports/documentdetail/099515108112240110/idu0efe43a120f8bd0423c08c570d59f97ae3785>
8. World Bank: Report <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/10/07/new-world-bank-study-contributes-to-development-of-uzbekistan-s-strategy-for-foreign-direct-investment>
9. Инвестиционная политика Китая: основные особенности и приоритеты. Фундаментальные исследования. Т.А. Levchenko. <https://fundamental-research.ru/article/view?id=43479>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---